

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 219 (1280), 2024-yil 29-oktabr, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



SAYLOVNING DASTLABKI NATIJALARI E'LVON QILINDI

Markaziy saylov komissiyasi matbuot markazida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlarga saylovlarning dastlabki natijalariga bag'ishlangan matbuot anjumani bo'lib o'tdi. Tadbirda davlat va nodavlat tashkilotlar, siyosiy partiyalar vakillari, mahalliy va xalqaro kuzatuvchilar, ekspertlar, jurnalistlar ishtirok etdi.



o'tkazildi. Bu esa ovoz berish va saylov natijalarini tezkor aniqlash, ovoz berish jarayoni qonuniyligini ta'minlash, saylov komissiyalari ish hajmini maqbullashtirishga xizmat qildi.

Saylov kuni jarayonni real vaqt rejimida (onlayn) videotranslyatsiya qilish maqsadida tuman va shaharlar hududidagi tegishli texnik talablarga muvofiq bo'lgan saylov uchastkalarida videokamera o'rnatildi. Bu Markaziy saylov komissiyasining matbuot markazidagi ekranlarda, saylov.uz rasmiy veb-saytida hamda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston 24" va boshqa telekanallarida ovoz berish jarayonini onlayn kuzatish imkonini berdi. Bularning barchasi saylovga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishni yuksak demokratik tamoyillar darajasida tashkil etish, fuqarolarning saylov huquqlarini to'liq amalga oshirish, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda siyosiy partiyalarning faol ishtirokini ta'minlash uchun keng sharoit yaratadi.

Davomi 2-betda

O'zbekiston va dunyo

XITOIY – MARKAZIY OSIYO HAMKORLIK FORUMI:

STRATEGIK MUNOSABATLARNI IZCHIL RIVOJLANTIRISH YO'LIDA



Joriy yil 25-26-oktabr kunlari Xitoyning Inchuan shahrida Xitoy — Markaziy Osiyo XI hamkorlik forumi bo'lib o'tdi. Mintaqaviy anjumanda ishtirok etgan mamlakatimiz delegatsiyasi rahbari — Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari Akmal SAIDOV bilan forum tafsilotlari haqida suhbatlashdik.

— Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, bugungi kunda dunyo nafaqat turli tahdid va xatarlar, balki ulkan imkoniyatlarni ham o'zida mujassam etgan global o'zgarishlar davriga qadam qo'ydi, — deydi A.Saidov. — Shu ma'noda, dastavval Xitoy — Markaziy Osiyo XI hamkorlik forumining uchta muhim xususiyatiga e'tibor qaratish lozim.

Birinchi, bu galgi hamkorlik forumi O'zbekiston — Xitoy munosabatlarida yangi davr boshlangan tarixiy bir sharoitda bo'lib o'tdi. Gap shundaki, O'zbekiston Prezidentining joriy yil yanvar oyida Xitoyga davlat tashrifi yakunlari bo'yicha

har ikki davlat rahbarlari tashabbusi bilan mamlakatlarimizning o'zaro munosabatlari "yangi davrda barcha sharoitlarda har tomonlama strategik sheriklik"ga ko'tarilishi uchun ulkan shijoat baxsh etildi.

Shuningdek, 2024-yil iyul oyida O'zbekiston va Xitoy rahbarlari qo'shni Qozog'istonning Ostona shahrida uchrashib, o'zaro hamkorlik masalalarini muhokama qildilar. Ikki davlat yetakchilari o'rtasidagi uchrashuvlarning muntazam tashkil etilayotgani xalqlarimiz manfaatini uchun hamkorlikni rivojlantirish va bu borada yangi yo'nalishlarni ko'rsatib berishga xizmat qilmoqda.

Ikkinchi, ushbu forum joriy yilda o'z birinchi marta o'tkazildi. Bu, bir tomondan, forumning allaqachon an'anaviy ahamiyat kasb etganini ko'rsatadi, ikkinchi tomondan, Xitoy va Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari uchun bunday hamkorlik formati zarurligini amalda tasdiqlaydi.

Uchinchi, mazkur mintaqaviy hamkorlik anjumani aynan Inchuan shahrida tashkil etildi. Inchuan Xitoyning qadimiy va mashhur shaharlaridan biri bo'lib, g'aroyib tarixi hamda go'zal tabiat manzaralari bilan ajralib turadi.

Davomi 3-betda

YANGI SAYLOV TIZIMI DEMOKRATIK DAVLATDAGI SHAFFOFLIKNING YORQIN NAMUNASI

MAMLAKATIMIZDAGI SAYLOVLARDA OVOZ BERISH JARAYONI XALQARO KUZATUVCHILAR NIGOHIDA

27-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari Kengashlari saylovi bo'lib o'tdi.

Saylov jarayonini 850 dan ortiq xorijiy va xalqaro kuzatuvchilar kuzatib bordi.


Ulamning ta'kidlashicha, saylovga yuqori darajada tayyorgarlik ko'rilgan, siyosiy tadbir ochiqlik va demokratiya prinsiplari asosida o'tdi.

Davomi 2-betda



"ISLOM - TINCHLIK VA EZGULIK DINI" MAVZUSIDAGI ILMYIY-AMALIY KONFERENSIYA YAKUNIDA QABUL QILINGAN XIVA DEKLARATSIYASI

Dunyoning turli mintaqalarida qonli to'qnashuvlar, mafkuraviy kurashlar, g'oyaviy qarama-qarshiliklar, turli yo'nalish va oqimlar o'rtasida o'zaro nizo va ziddiyatlar tobora avj olib borayotgan bugungi murakkab zamonda muqaddas islom dinining tinchlikparvarlik va insoniylik mohiyatini keng targ'ib etish jahonda tinchlik va osoyishtalik, hamjihatlik, totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, jamiyatda turli buzg'unchi g'oyalarni tarqalishining oldini olishda muhim omil hisoblanadi.



Islom ta'limoti vujudga kelgan ilk davrdan bugungi kunga qadar insoniyatning madaniy va ma'naviy kamolotida beqiyos o'ringa ega bo'lib kelmoqda. Islom dinining ma'rifiy roli kelgusida ham umumbashariy taraqqiyot va farononlik, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davomi 2-betda

Yuksalish pallasini

ULARGA EHTIYOJ BOR

MAKTABLARDA ERKAK O'QITUVCHILAR KO'PAYMOQDA

Erkak o'qituvchilar maktabga qaytayotgani haqida maqola yoza boshlaganimda xayolim olis o'quvchilik yillariga ketdi. Suv quyandek jim-jit maktab darsxonasini adabiyot muallimining vazmin va salobatli ovozi buzadi. Ustoz berilib she'r o'qiydi:

"Vodiylarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi manda..."

Uning jiddiy qiyofasi qarshisida hayratdan qotib o'tirardik. Ko'z oldimizda vatan kengliklari jonlana, tabiatga shaydollik, hayotga muhabbat tuyg'usi aqlimizni ruhimizga ko'chardi. Darslar juda qiziqarli va sokin o'tar, hayotdan saboq berilardi go'yo.

Davomi 5-betda

Har bir oila — tadbirkor

BALIQ TUTISH UCHUN QARMOQ BERILGANDA...

Farg'ona viloyatida baliqchilik rivojiga e'tibor kuchayishi hisobiga mahsulot ishlab chiqarish hajmi oshdi, sifati yaxshilandi. Bu yil viloyat baliqchilik havzalarida 110 ming tonna parhez bop mahsulot yetishtirish ko'zda tutilgan. Bu avvalgi yillardagidan bir necha karra ko'p.

Joriy yilning o'zida baliqchilik yo'nalishida umumiy qiymati 28 milliard 528 million so'mlik 25 ta loyiha amalga oshirildi. Buning hisobiga qo'shimcha 252 tonna baliq yetishtirish imkoniyati yaratildi.

Baliq chavoqlarini yetishtirib beruvchi xo'jalik va korxonalar soni ham yildan yilga ortib bormoqda. Ayni kunlarda Quvasoy shahridagi "Omad", Bag'dod tumanidagi "Sho'rtepa Oydin ko'li", Buyayda tumanidagi "Yoqub Ali" fermer xo'jaliklari, Farg'ona shahridagi "Buloq" va Beshariq tumanidagi "Saxovatli ummon ne'mati", "Baliq" MCHJlarda 10 million donadan ortiq baliq chavog'i yetishtiradigan yangi sexlar ishlab turibdi.

Davomi 4-betda





www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz_official

yuz.uz_news

yuz

SAYLOVNING DASTLABKI NATIJALARI E'LON QILINDI

Boshlanishi 1-betda

Matbuot anjumanida saylovning dastlabki natijalari e'lon qilindi. Unga ko'ra, ikkita saylov tizimi, ya'ni deputatlikka nomzodlar va partiyalarga berilgan ovozlar bo'yicha Qonunchilik palatasiga saylangan jami 150 deputat tarkibining partiyaviy mansubligi quyidagicha:

Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati —

SAYLOV
2024
27-OKTABR

Saylovchilarning ishtiroki to'g'risida

MSK

Respublika hududi



O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan — 64 ta o'rin yoki 42,7 foiz;

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan — 29 ta o'rin yoki 19,3 foiz;

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan — 21 ta o'rin yoki 14 foiz;

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan — 20 ta o'rin yoki 13,3 foiz;

O'zbekiston Ekologik partiyasidan — 16 ta o'rin yoki 10,7 foiz.

Matbuot anjumanida qayd etilishicha, davlat hokimiyati vakillik organlariga o'tkazilgan saylovlar bo'yicha saylovga doir qonunchilik talablari qo'pol ravishda buzilgan haqida xabar va ma'lumotlar kelib tushmadi.

28-oktabr kuni, shuningdek, MSK matbuot markazida Oliy sud va prokuratura organlari, NNTlar, xorijiy va xalqaro kuzatuvchilar missiyalari vakillari ishtirokida brifinglar ham bo'lib o'tdi. Ushbu tadbirlarda saylov

jarayonlarining o'ziga xos jihatlari xususida so'z yuritildi.

Jumladan, MDH Bosh kotibi Sergey Lebedov mamlakatimizda saylov jarayonlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish haqidagi fikr-mulohazalari hamda missiya xulosalarini bayon qildi. Qayd etilganidek, missiya vakillari barcha hududda saylovga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish jarayonini

kuzatib bordi. Saylovga yuqori darajada tayyorgarlik ko'rilgan, siyosiy partiyalar va nomzodlar tomonidan keng ko'lamda tashviqot materiallari tayyorlangan. Saylov kuni saylovchilar ko'tarinki, bayramona kayfiyatda ekan, ovoz berish jarayonlari qonunchilikka mos tarzda tashkil etilgan e'tirof etildi. Shuningdek, mamlakatimizdagi saylov demokratik tamoyillar asosida, ochiq va oshkorlik ruhida o'tgani ta'kidlandi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiya davlatlar tashkiloti missiyasi vakillari ham mamlakatimizda bo'lib o'tgan parlament va mahalliy kengashlarga saylovlar ochiqlik va demokratiya tamoyillariga mos o'tgani, saylov jarayonlarida, ovoz berishni tashkil etishda qonun buzilishi holatlari kuzatilmaganini qayd etildi.

Bahor XIDIROVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

YANGI SAYLOV TIZIMI DEMOKRATIK DAVLATDAGI SHAFFOFLIKNING YORQIN NAMUNASI

MAMLAKATIMIZDAGI SAYLOVLARDA OVOZ BERISH JARAYONI XALQARO KUZATUVCHILAR NIGOHIDA

Boshlanishi 1-betda

Mohd Faiz ABDULLA,
Malayziya Strategik va
xalqaro tadqiqotlar
instituti raisi:

— 27-oktabr kunning birinchi qismida to'rtta saylov uchastkasiga bordim. Alohida ta'kidlayman, men bu yerda demokratiyaning juda sog'lom o'ishini kuzatdim. Saylov komissiyasi mas'ullari o'z faoliyatida shaffoflikni ta'minlash uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirdi.

Jarayonlarga umumiy baho esa yangi demokratiya va unga bosqichma-bosqich borilayotganidir. O'zbekiston juda yaxshi sur'atda bu yo'ldan odamlamoqda. Mana shunday oldinga siljish ham uning mustahkam poydevorga ega bo'lib borishi belgisidir.

Yana bir jihatni alohida ta'kidlab o'tish kerak. Fuqarolarning jarayonlardagi faolligi yuqori darajada bo'ldi. Nafaqat



O'zbekistonda, balki chet elda bo'lib turgan O'zbekiston fuqarolari ham uyushqoqlik bilan qatnashdi.

Ayrim nufuzli saytlarni kuzatganimda, O'zbekistonning birgina Moskvadagi elchixonasida odamlar ovoz berish uchun uzun navbatlarda turganini ko'rdim. Bu ularning mamlakatda kechayotgan siyosiy voqealarga befarq emasligini tasdiqlaydi.

Intesar ABDULLA,
Saudiya Arabistonining
"Neprass" yangiliklar
elektron nashri
bosh direktori:

— O'zbekistondagi qator konferensiyalarda ishtirok etganman, ammo saylov jarayonlarini kuzatishda ilk bor qatnashdim. Mazkur jarayonlarda meni hayratga solgan jihati bu — O'zbekistonda elektron saylov tizimining yo'lga qo'yilgani bo'ldi.

Ushbu yangi tizimni fuqarolar uchun qulay imkoniyat hamda demokratik davlatdagi shaffoflikning yorqin namunasi, deb bilaman. O'zim borgan saylov uchastkalarida yaratilgan sharoit ham juda yaxshi edi.



Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, saylov uchastkalari bir nechta umuma'lim maktablarida tashkil etilgan. Ushbu maktablar yangicha va zamonaviy qiyofada ekan ham e'tiborli.

Shuningdek, saylovgacha bo'lgan debatlarda qatnashib, jonli muloqot va muhokamalarni kuzatish imkoniyatiga ega bo'ldim.



Sarmad ALI,
Pokiston Senati a'zosi:

— O'zbekistondagi parlament saylovi jarayonlari dunyoning turli burchagidan kelgan 800 dan ortiq xalqaro kuzatuvchilar ishtirokida o'tgani quvonarlidir. Bu o'z-o'zidan hukumatning ochiqchiligi ishora qilmoqda. Boshqa xalqaro kuzatuvchilar bilan gaplashganimda ular ham xuddi shu fikrlarni ta'kidladilar.

Saylovda ishtirok etuvchilar va kuzatuvchilar uchun barcha qulaylik va sharoitlar yaratilgan.

Dalia Oltuntepe,
"Niderlandiya — O'zbekiston"
do'stlik jamg'armasi raisi:

— Bu mening O'zbekistondagi saylovlarda kuzatuvchi sifatida to'rtinchi marotaba qatnashishim. Mamlakatda ham, saylov jarayonlarida ham har safar ijobiy o'zgarishlar guvohiga aylanyapman. Birgina misol, targ'ibot kampaniyalarining ko'chalardagi bannerlardan boshlangani tahsinga loyiq. Bu ovoz berish jarayonini yanada jonli qiladi, chunki har kuni odamlar bannerlarni ko'rib, nomzodlar bilan tanishish imkoniga ega bo'ladi.



Yana bir muhim masala, O'zbekistonda fuqarolik jamiyati kuchayib borayotganiga

guvoh bo'ldim. Televideniya nomzodlar o'rtasidagi bahslarda mavzular juda jonli va jiddiy muhokama qilindi. O'zbekistonda saylov jarayoni faollashib borayotganidan dalolat beradi.

Bir nechta saylov uchastkalariga tashrifim chog'ida raqamli ovoz berish tizimi mavjudligini ko'rdim. Bu nafaqat ovoz berish jarayonlarida yengillik yaratadi, balki uning shaffof o'tishiga xizmat qiladi.

Jarayonlarga yosh avlod qiziqishining yuqoriligi e'tirofga loyiq. Men yana bir juda qadrlaydigan jihat — ayollar kvotasining 40 foizdan kam bo'lmasligidir. Umumiy holat va jarayonlardan kelib chiqib aytishim mumkinki, O'zbekistondagi saylov jarayonlari jahon standartiga to'la mosdir. Shu nuqtayi nazardan, menimcha, O'zbekiston Yevropa yoki G'arb davlatlari uchun ham namuna bo'la oladigan davlatga aylanish yo'lida juda yaxshi qadam tashlamoqda.

"Dunyo" AA

"SHUNDAY IMKONIYATLAR BERILGANDA MEN HAM DEPUTAT BO'LARDIM"

Yoshim 86 da. To'qqiz farzand, qirg'qa yaqin nabiram bor. Nevarachevaralarning hisobidan allaqachon adashib ketganman. Esimni taniganimdan kolxozda mehnat qilganman. O'sha davrlar shunday edi-da. Farzandli bo'lganimizda ham belimizni tutmasimizdan kolxozga chiqishimizni aytishardi. U paytlar yo biz huquqlarimizni bilmaganmiz, yo bizni himoya qiladigan odam bo'lmagan.

"Deputatlar xalqni himoya qiladi, xalq nomidan gapiradi", degan gaplar avval yo'q edi. Saylov bo'lsa, borib ovoz berib kelaverganimiz, kimga ovoz berayotganimizni ham bilmaganmiz. Saylovga borgan odamlarga qand-qurs, shirinliklar berilardi. Shu shirinliklarga qiziqib, bolalarimizni yetaklab boravergan bo'lsak kerak-da.

Katta farzandim hali go'dak edi. Saylovga ko'tarib olib borganman. Ovoz beradigan qog'ozni belgilagunimcha qayerga qo'yib



ekanigacha yozib qo'yilgan. Ular orasida ayollar ham ancha-muncha ekanini ko'rib xursand bo'ldim. Kiyimlari yarashganini aytmaysizmi? Bizning paytlarda ham ayollarga shunday imkoniyatlar, sharoitlar qilib berilganda men ham deputat bo'lib ketarimdim, deymen nabiralaringma.

Qarichilik-da, oyog'im og'riydi. Ko'p yurolmayman, og'riq tutib qoladi. Bo'lmasa, borib o'z ko'zim bilan saylov uchastkasidagi shu xonalarni ko'rib kelardim. Saylovga

Qarichilik-da, oyog'im og'riydi. Ko'p yurolmayman, og'riq tutib qoladi. Bo'lmasa, borib o'z ko'zim bilan saylov uchastkasidagi shu xonalarni ko'rib kelardim. Saylovga ham borolmasam kerak, deb o'tirgandim. Baraka topkur saylov uchastkasi a'zolaridan ikki kishi kelib, ovozimni olib ketdi. Bir qari kampir uchun o'z ko'zlarini ko'rib, ovozimni olib ketdi. Bir qari kampir uchun o'z ko'zlarini ko'rib, ovozimni olib ketdi. Bir qari kampir uchun o'z ko'zlarini ko'rib, ovozimni olib ketdi.

turishni bilmay qiynalganman. Hozirgidek sharoitlar yo'q edi u vaqtlar. Endi bilyapmiz: saylov uchastkalarida ona-bola xonasi, salomatlik xonasi degan xonalar ham bo'lar ekan. Uyda qoldirishga sharoiti yo'q onalar o'zi bilan bolalarni olib borib, bemalol ovoz bersa bo'larkan. To ovoz berib chiqqunicha farzandi o'ynab turarkan o'sha xonada. Tobi qochsa, tez tibbiy yordam ko'rsatishga hamshiralari ham tayyor turarkan. Bir sharoit bo'lsa, shuncha bo'lar-da.

Har qadamda nomzodlarning rasmini ko'rasiz. Ismi nimayu, qanday ish qilmoqchi

ham borolmasam kerak, deb o'tirgandim. Baraka topkur saylov uchastkasi a'zolaridan ikki kishi kelib, ovozimni olib ketdi. Bir qari kampir uchun o'z ko'zlarini ko'rib, ovozimni olib ketdi. Bir qari kampir uchun o'z ko'zlarini ko'rib, ovozimni olib ketdi. Bir qari kampir uchun o'z ko'zlarini ko'rib, ovozimni olib ketdi.

Maston TOSHMATOVA
Jizzax shahri

"ISLOM — TINCHLIK VA EZGULIK DINI" MAVZUSIDAGI ILMIIY-AMALIY KONFERENSIYA YAKUNIDA QABUL QILINGAN XIVA DEKLARATSIIYASI

Boshlanishi 1-betda

Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylarining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2023-yil 19-sentabrdagi 78-sessiyasida ilgari surgan "Islom — tinchlik va ezgulik dini" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazishga oid tashabbusi hamda islom dinining asl mohiyati borasida bildirgan fikrlari bu borada muhim va dolzarb ahamiyatga ega.

Shu nuqtayi nazardan, biz, "Islom — tinchlik va ezgulik dini" xalqaro konferensiyasi ishtirokchilari bu borada quyidagi vazifalarni amalga oshirish muhim ekanini ta'kidlaymiz:

1. Islom dinining tinchlikparvarlik va insoniylik mohiyatini ochib berishga qaratilgan ilmiy va ommabop adabiyotlarni nashr etish, ularning turli tillardagi tarjimasini amalga oshirish hamda taqdimotlarini o'tkazish;
2. Musulmon mamlakatlarining olim va mutaxassislari ishtirokida ekstremizm, radikalizm va terrorizmga qarshi kurash samardorligini yanada oshirish, ilmiy raddiyalar berish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha muntazam ravishda ilmiy seminar va davra subhatlarini tashkil etish;
3. Islom dinining ijtimoiy barqarorlik, yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ma'rifat va madaniyat, ilm-fan rivojida tutgan yuksak mavqei hamda ular yaratgan asarlarda islom dinining ezgu g'oyalari mohiyati to'laqonli ochib berilganini hisobga olib, ularning ilmiy



Islom ta'limoti vujudga kelgan ilk davrdan bugungi kunga qadar insoniyatning madaniy va ma'naviy kamolotida beqiyos o'ringa ega bo'lib kelmoqda. Islom dinining ma'rifiy roli kelgusida ham umumbashariy taraqqiyot va farovonlik, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

4. O'zbekiston zaminidan yetishib chiqqan allomalarning islom olamida tutgan yuksak mavqei hamda ular yaratgan asarlarda islom dinining ezgu g'oyalari mohiyati to'laqonli ochib berilganini hisobga olib, ularning ilmiy

merosini o'rganishni tizimli yo'lga qo'yish, jumladan, hali ilmiy muomalaga kiritilmagan qo'lyozmalarning elektron nusxalarini jamlash, tanqidiy matnlarini nashrga tayyorlash;

5. Islom dinining tinchlikparvarlik mohiyatini xalqaro hamjamiyatga yetkazish maqsadida musulmon mamlakatlari hamda xorijlik olimlar ishtirokida an'anaviy tarzda "Islom — tinchlik va ezgulik dini" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazish hamda konferensiya materiallari to'plamini tayyorlash va nashr etish;

6. Musulmon mamlakatlarining olim va mutaxassislari ishtirokida islomning tinchlik va ezgulik dini ekanini ochib berish hamda buzg'unchi oqimlarga qarshi raddiya berishga bag'ishlangan mahorat darslari, onlayn muloqotlar tashkil etish;

7. Jahonning yetakchi universitetlari hamda ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan ekstremizm, radikalizm va terrorizmga qarshi kurash doirasida amalga oshirilgan ishlar va tadqiqotlarni umumlashtiruvchi yagona platforma — onlayn elektron portal yaratish;

8. Musulmon mamlakatlari fatvo markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda bugungi kun uchun dolzarb sanalgan mavzular yuzasidan qo'shma fatvolar tayyorlashni yo'lga qo'yish.

Fursatdan foydalanib, islom dini tinchlik, ezgulik va ma'rifat dini ekanini, unda buzg'unchilikning har qanday shakli qat'iy qoralanishini yana bir bor tasdiqlaymiz.

"Islom — tinchlik va ezgulik dini" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilari
Xiva shahri,
2024-yil 16-oktabr

Yangicha yondashuvlar

MILLIY STATISTIKA SOHASINING RAQAMLASHUVI

foydalanuvchilarga qulaylik yaratishda muhim ahamiyatga ega

Statistika sohasining raqamlashuvi foydalanuvchilarga qulaylik yaratish bilan birga, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va yetkazib berishni ham yengillashtiradi. Ma'lumotlar samaradorligi va aniqligiga bo'lgan talablar kuchayishi hisobiga faoliyatni avtomatlashtirish zarurati tobora ortib bormoqda. Shu sababli statistika axborot tizimlarini modernizatsiya qilish va ularning integratsiyasi masalalari dolzarb bo'lib bormoqda.

Odiljon MAMADALIYEV,
Statistika agentligining
Xalqaro hamkorlik va
axborot almashuv boshqarmasi
boshlig'i



Sohani rivojlantirish bo'yicha milliy strategiya tasdiqlanishi kelgusidagi asosiy yo'nalishlarni aniqlash imkonini berdi. Integratsiya jarayonlarida raqamli texnologiyalarni keng qo'llash rasmiy statistikani shakllantirish uchun istiqbolida foydalanilishi mumkin bo'lgan statistik ma'lumotlar manbalari, masalan, "Big data" yechimlariga yo'l ochib beradi.

MDHning yaqinda, ya'ni oktyabr oyi boshida Toshkent shahrida bo'lib o'tgan II xalqaro statistika forumida ayni shu mavzu muhokama qilindi.

Raqamli texnologiyalarni statistika sohasiga integratsiya qilishning yakuniy maqsadi yuqori sifati statistik ma'lumotlarning barcha foydalanuvchilar uchun oson va tushunarli bo'ladigan ekotizimni yaratishdir.

Zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tobora kengayib borishi va iste'mol narxlarini indeksini shakllantirish jarayonlariga "Big data" texnologiyalari joriy etilishi barcha davlatlar statistika idoralari katta qiziqish uyg'otmoqda. Xususan, Norvegiya, Turkiya, Gruziya, Vyetnam, Qozog'iston kabi davlatlar statistika idoralari iste'mol narxlarini indeksini hisob-kitoblari uchun narxlar to'g'risidagi zarur axborotlarni ma'muriy ma'lumotlar asosida to'plash ishlarni amalga oshirmoqda.

Shuningdek, Gruziya va Norvegiya milliy statistika idoralari turar joy mulki narxlarini

indeksini hisoblash uchun veb skrepindan foydalanishni yo'lga qo'ygan.

Turkiya milliy statistika instituti statistik biznes registri tizimidagi iqtisodiy va ijtimoiy sohalar bo'yicha ma'lumotlarni choraklik va oylik soliq hisoboti bilan bog'lash ishlarni amalga oshirmoqda.

Yangi axborot manbalari keng foydalanish imkoniyatlari va ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash hamda tarqatishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Buning uchun esa rasmiy statistika va boshqa ma'lumotlar ishlab chiqaruvchilar — davlat hokimiyati organlari, tashkilotlar va ilmiy muassasalar o'rtasida samarali hamkorlik zarur.

Statistik ma'lumotlarni shakllantirish uchta — birlamchi ma'lumot yig'ish, qayta ishlash va statistik ma'lumotlarni taqdim etish bosqichini qamrab olgan jarayondir.

Yurtimizda birlamchi ma'lumotlarni yig'ishda yangi axborot manbalari foydalanish yo'lga qo'yildi. Buning uchun Statistika agentligi tomonidan statistik ma'lumotlarni to'plash maqsadida 16 dan ortiq vazirlik va idoradan 30 dan ziyod ma'muriy ma'lumotlar bazasi integratsiyasi amalga oshirildi. Natijada ishonchli statistik ma'lumotlarni foydalanuvchilarga taqdim etish hamda respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy holat bo'yicha 100 dan ortiq turdagi muhim ko'rsatkichlarni onlayn yangilab berish, e'lon qilish, izlash vaqtini tejash imkoniyati yaratildi.

Shuningdek, statistik hisobotlarni tahlil qilish jarayonida ma'lumotlarni solishtirish orqali mutanosiblikni aniqlash tizimi yo'lga qo'yildi. Kuzatuvlarni planshetlar yordamida o'tkazish hamda ma'lumotlarni onlayn rejimda internet orqali Statistika agentligi markaziy apparati serverlariga yuborish imkoniga ega axborot tizimi va maxsus dasturiy ta'minot ishlab chiqildi.

Statistik kuzatuvlarni o'tkazish jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali qog'oz sarfi 100 foiz kamayib, yiliga o'rta 600 million so'm iqtisod qilinishiga, ma'lumotlarni to'plash vaqtini 2 barobar va ma'lumotlarni kiritish va qayta ishlash muddatini 8-10 barobar qisqartirishga erishildi.

Planshetda GPS navigatsiya tizimi asosida avtomatlashtirilgan nazorat tizimi bo'lib, registrator narxlarini qayd qilish uchun savdo



Statistik ma'lumotlarni shakllantirish arxitekturasini

Statistik kuzatuvlarni o'tkazish jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali qog'oz sarfi 100 foiz kamayib, yiliga o'rta 600 million so'm iqtisod qilinishiga, ma'lumotlarni to'plash vaqtini 2 barobar va ma'lumotlarni kiritish va qayta ishlash muddatini 8-10 barobar qisqartirishga erishildi.

yoki xizmat ko'rsatish obyekti borligida planshetdagi geolokatsiya funksiyasi yoqilib,

axborot tizimiga avvaldan kiritilgan geografik joylashuv bilan mosligi 2 bosqichda avtomatik ravishda tekshiriladi. Birinchi bosqichda ma'lumotlarni kiritish jarayonida geolokatsiya tekshiriladi hamda geografik joylashuv mos kelsa, qayd qilishga ruxsat beriladi. Ikkinchi bosqichda esa savdo yoki xizmat ko'rsatish obyektidagi barcha tegishli ma'lumotlar planshetga kiritilgandan so'ng geolokatsiya yana bir bor tekshiriladi, geografik joylashuv tasdiqlanadi.

Natijada registratorlarning tanlab olingan savdo va xizmat ko'rsatish obyektlariga bormay turib ma'lumotlarni qayd etish holatiga chek qo'yildi.

Bugungi kunda veb skraping usullari yordamida internet do'konlardan tovarlar narxlarini skanerlash tizimi joriy etilgan. Bu bilan bir necha soniya ichida yuzlab internet do'konidagi tovarlar narxlarini o'rganish mumkin.

“STATA dasturida ishlash bir necha bosqichni o'z ichiga oladi. Dastur ishga tushishi uchun unda kerakli ma'lumotlar bazasi tanlab olinadi. Ushbu jarayonda markaziy apparat serveriga elektron hisobot tizimi, tanlanma kuzatuvlar va vazirlik idoralarning ma'muriy ma'lumotlari kelib tushadi. Mazkur ma'lumotlar asosida markaziy apparatning tarmoq boshqarmalari tomonidan taqdim qilingan jadvallar shakllantiriladi.

Hozirgi kunda statistik bazalarni bajarishda dunyo statistika tashkilotlari bir necha dasturiy mahsulotdan foydalanadi. STATA (Statistical software for data science), IBM SPSS Statistics, STATISTICA (Statistical data analysis), MATLAB (Matrix Laboratory) shular sirasidan. Mamlakatimizda vazirlik va idoralardan integratsiya yo'li bilan olingan katta hajmdagi ma'lumotlar STATA dasturiy ta'minotida qayta ishlanadi.

Mazkur dastur tahlillarni jadval, reyting va grafik ko'rinishda taqdim eta oladi.

STATA dasturida ishlash bir necha bosqichni o'z ichiga oladi. Dastur ishga tushishi uchun unda kerakli ma'lumotlar bazasi tanlab olinadi. Ushbu jarayonda markaziy apparat serveriga elektron hisobot tizimi, tanlanma kuzatuvlar va vazirlik idoralarning ma'muriy ma'lumotlari kelib tushadi. Mazkur ma'lumotlar asosida markaziy apparatning tarmoq boshqarmalari tomonidan taqdim qilingan jadvallar shakllantiriladi.

Forumda ana shunday tajribalar o'rganilib, tegishli xulosalar olindi. Masalan, Business Intelligence (BI) va ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish texnologiyalaridan foydalanish, sifat modellari (GSBPM, GSIM, GAMSQ, NQAF), metama'lumotlar almashinishining xalqaro standartlari (SDMX), smart ma'lumotlar — Findability, Accessibility, Interoperability, Reusability (FAIR — ma'lumotlar) tamoyillariga mos keladigan ochiq bog'langan ma'lumotlar bo'yicha batafsil axborot berildi.

Statistik ma'lumotlardan foydalanishning huquqiy va tashkiliy asoslarini yaratish, yig'ish va ayiribsoyish texnologiyalarini samarali qo'llash borasida tajriba almashildi. Shuningdek, aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish hamda uni registr va boshqa ma'lumotlar manbalari asosida o'tkazish masalalari ham muhokama qilindi.

Raqamli texnologiyalarni milliy statistika tizimida keng ko'lamda qo'llash yangi axborot manbalari, ma'lumotlar sifatini yaxshilash va ulardan foydalanish jarayonini soddalashtirishga katta yordam beradi. Tahlil qilish va kelajakdagi holatlar prognozida qo'l keladi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Har bir oila — tadbirkor

BALIQ TUTISH UCHUN QARMOQ BERILGANDA...

Boshlanishi 1-betda

Farg'ona shahri "Soy bo'yi" mahalla fuqarolar yig'ini hududida "STATUS SOFT" MCHJda Eron va Xitoy texnologiyasi asosida noyob turdagi gulmohi (forel) balig'i yetishtirish loyihasi amalga oshirilmoqda. Asosan, sovuq suv havzalarida rivojlanishga moyil bu bozorgir baliqlarni shu kunga qadar mahalliy sharoitda yetishtirish imkoniyati bo'lmagan. Loyiha bu yo'nalishda yangi imkoniyat eshiklarini ochdi. Bu yerda umumiy maydoni 23 sotix bo'lgan 32 ta kichik ko'l qurilishi hisobiga yiliga 100 tonna gulmohi yetishtirish, qayta ishlash va eksportga yo'naltirish imkoniyati yaratildi.

Fransiya taraqqiyot agentligi ishtirokidagi "Chorvachilik sohasini barqaror rivojlantirishni moliyalashtirish" loyihasi doirasida uzoq muddatli, imtiyozli kredit ajratildi, — deydi baliqchilik xo'jaligi rahbari Umidjon Madaminov. — Ayni kunda 3 ta baliq havzasi ishga tushirildi, 10 ming dona baliq chavog'ini parvarishga qo'ydik. Nasib qilsa, yangi yil dasturxoniga 10 tonnadan ortiq mahsulot yetkazib beramiz.

Bugungi kunda viloyatdagi 11 ming gektardan ortiq suv havzalarida baliq boqilyapti. Tabiiy suv havzalaridan tashqari intensiv, qafas moslamalar, yopiq suv aylanma tizimlar va aholi xonadonlarida tashkil etilgan ko'larda baliq boqish tajribalari ommalashib bormoqda.

Prezidentimizning 2020-yil 29-avgustdagi "Baliqchilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori baliqni sanoat usulida yetishtirish, qayta ishlashda tarmoq korxonalarini

uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi, — deydi viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi bosh mutaxassisi Kamoliddin Mo'yidinov. — Baliq yetishtirish bilan shug'ullanuvchi qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan suv iste'moli uchun to'lanadigan soliq turlarida imtiyozlar berildi. Amaliy tadbirlar bois, bozorlarimizda baliq mahsulotlarining turi ko'payib, narxi arzonlashib bormoqda. Intensiv usulda baliq yetishtirishga e'tibor kundan kunga kuchaymoqda. Buguniga qadar sun'iy suv havzalarini yarim intensiv usulga o'tkazish uchun 169 ta fermer xo'jaligida umumiy quvvati 748 kVt.ga ega quyosh panellari o'rnatildi. Bu elektr tarmoqlari yetib bormagan olish hududlaridagi ko'llardan samarali foydalanish imkoniyatini bermoqda. Bundan tashqari, 655 gektar maydonga 1485 ta aerator o'rnatildi. Buning hisobiga sun'iy suv havzalarida o'rta hosildorlik 4-5 barobar oshdi. Chunki aylanma aerator qurilmalari ko'l tubini foydali kislorodlar bilan boyitib beradi, suv haroratini me'yorlashtirib turadi. Oziqlantiruvchi moslama esa ozuqalarni butun ko'l bo'yab sochadi. Natijada baliqlar bir me'yorda oziqlanib, sog'lom va tez rivojlanadi.

Baliqchilik yo'nalishida eng ko'p loyiha Yozyovon tumanida amalga oshirildi. Keyingi ikki-uch yilda Markaziy Farg'onadagi cho'l yerlarni o'zlashtirish hisobiga 2 ming gektar baliq ko'llari tashkil etildi.

— Shu kunga qadar umumiy qiymati 19 milliard 170 million so'mlik 16 ta istiqbolli loyiha bajarildi, — deydi Yozyovon tumani veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi boshlig'i Rahmatjon Mamajonov. — O'tgan mavsumda "Aziz ko'l" fermer xo'jaligida quyosh panellardan foydalangan holda baliq parvarishlash tajribasi sinov



tariqasida amaliyotga joriy etilgandi. Bu usul qisqa fursatda o'z samarasini berdi. Joriy mavsumda tumanimizdagi 45 ta baliqchilik xo'jaligida muqobil elektr manbalardan foydalangan holda baliq yetishtirilyapti. Bu ortiqcha xarajatlarsiz mo'l va sifati hosil olish imkoniyatini beriyapti.

Bundan tashqari, 4 ming gektar sun'iy suv havzalarini intensivlashtirish borasidagi loyihalar mahsulot hajmini oshirish, sifatini yaxshilashga sabab bo'lmoqda. Yana bir muhim jihati, sohaga klaster, kooperatsiya

tizimlarini joriy etish, vodiy iqlim sharoitiga mos serhosil baliq turlarini parvarishlash, tabiiy va sun'iy suv havzalaridan samarali foydalanishga bo'lgan e'tibor oshdi. Masalan, oddiy usulda bir gektar yerda o'rta hisobda 3-5 tonna baliq yetishtirilgan bo'lsa, intensiv usulda baliq parvarishlash orqali hosildorlik 7-8 tonnadan oshadi.

"Farg'ona baliqsanoat agro" MCHJ tomonidan Yozyovon tumanida intensiv usulda 100 tonna baliq yetishtirish loyihasi amalga oshirildi. Oltiariq tumanidagi Qiziltepa massivi

hududida bakrabaliq (osyotr) yetishtiruvchi yopiq suv aylanma tizimi ishga tushirildi.

— Bu yerda yiliga 2 ming tonnadan ortiq baliq yetishtiriladi, — deydi "Farg'ona baliqsanoatagro" MCHJ yig'ini yurituvchisi Yunusali Nishonov. — Yangi usul katta maydon, ko'p suv sarf qilmasdan mo'l va sifati mahsulot olish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, baliq chavoqlari, omixta yem ishlab chiqarish, mahsulotni qayta ishlash, ekoturizmni rivojlantirish maqsadida baliq havzalari oldida baliq ovlash uchun maxsus joylar tashkil etish bilan bog'liq yangi loyihalar ustida ish olib boryapmiz.

Aholi daromadini oshirish, bandligini ta'minlash, kambag'allikdan chiqarishda bu tarmoqning imkoniyat va istiqbolli yuqori. Dang'ara tumanidagi "Bog'ish" mahalla

fuqarolar yig'inida yashovchi Yashnarbek No'monov o'z tomorqasida dekorativ baliq ko'paytirish bilan shug'ullanib kelmog'ida.

— Uy sharoitida bu baliqlarni mahalliy sharoitga moslashtirish, parvarishlash masalasida soha mutaxassislari bilan aloqa bog'lab, izlanishlar olib bordim, — deydi yosh tadbirkor. — Mehnatlarim besamar ketmadi, baliqlar mahalliy sharoitimizga tez moslashib, yaxshi rivojlandi, daromadim ham chakki emas. Masalan, 10 santimetrli bir dona dekorativ baliq ulgurji narxlarda 10-15 ming so'm atrofida baholanadi. Bu bir mavsumda o'rta hisobda 150-200 million so'mdan ortiq daromad degan gap.

Uy sharoitida tez yetiluvchi afrika laqqasi boqish ham ommalashmoqda. Bu baliq mahalliy iqlim sharoitiga tez moslasha olish va hosildorligi bilan ajralib turadi. Baliq chavoqlari olti oyda bir kilogrammdan ortiq vazn oladi. Ularni parvarishlash uchun katta suv havzalari talab qilinmaydi. Intensiv usulda baliq yetishtirish orqali bir kvadrat metrdan 400-500 kilogramm yoki 20 million so'mdan ortiq daromad olinadi.

Yozyovon tumanidagi "Navro'z" mahalla fuqarolar yig'inidagi 5 ta xonadon egalari ana shu usulda baliq parvarishlayapti.

— Xonadonimizda 2 sotix sun'iy ko'l tashkil etib, afrika laqqasi yetishtirish bilan shug'ullanib kelyapmiz, — deydi Bahodir Qalandarov. — Bu baliqqa ortiqcha sarf-xarajat qilmay, yil davomida ko'paytirish va parvarishlash mumkin. Baliqlar 25 darajadan yuqori suvda yaxshi rivojlanadi. Bunga bizning iqlim sharoitimiz juda mos tushadi. Bir mavsumda 130-150 million so'mdan ortiq daromad olamiz.

Xulosa qilib aytganda, viloyatda baliqchilik sohasida amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalar savdo tarmoqlari, aholi dasturxoniga sarxil baliq mahsulotlari yetkazib berish imkoniyatini kengaytirayotgani bilan ahamiyatli.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Bugun muallimning mavqeyi, o'qituvchilik kasbi nufuzini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda, hurmat-ehtirom ko'rsatilib, mehnati munosib e'tirof etilayotir.

Pedagoglar turli yumushlar, ortiqcha qog'ozbozlikdan ozod etilishi, oylik maoshlari oshirilgani, ustoz degan ulug' maqomga munosib ko'rilyotgani samarasini bir mahallar turli sabablarga ko'ra, maktabni tark etgan erkak o'qituvchilarning o'z ishiga qayta boshlagani misolida ham ko'rish mumkin.



Boshlanishi 1-betda

O'g'il bola sinfdoshlarimiz ustozimizdan hayiqat, o'yinchoq bolalar ham adabiyot fanida tartibli va intizomli o'quvchiga aylanib, kitobga, mutolaaga oshno tutinardi.

Yodimda, 5-sinfda o'qib yurgan kezlrim ilk she'rinni muallimga qo'rqa-pisa ko'rsatarkanman, o'yanch qiyofasiga bir zum quvonch inganini ko'rdim. Ana shu quvonch kelajakka umid berdi. Ustozimning ishonchi va qo'llab-quvvatlovi bilan maqolalarim, she'rlarim dastlab tuman, so'ng markaziy nashrlarda chop etila boshlandi. Shu tariqa o'z yo'limga tanladim.

Ustoz o'shanda har birimizdagi yashirin iqtidorni ilg'agan, shunga qarab yondashganini keyinroq angladik. Oradan yillar, fasillar o'tdi. Birimiz muhandis, birimiz o'qituvchi, yana kimdir shifokor bo'ldi. Orta nazar tashlar ekanimiz, bugungi darajamizda adabiyot muallimining nechog'liq mehnati va salohiyati yotganini yaxshi tushunamiz. Talabchan va qattiqqo'l, mehirdor muallim siymosi ko'z oldimizda gavdalangan, qalbimizda minnatdorlik, chuqur hurmat hislarini tuyushimiz bor gap.

148 ming 695 nafarini erkak o'qituvchilar tashkil etgan bo'lsa, 2024/2025-o'quv yilida 538 mingdan ortiq pedagogning 161 ming 432 nafari erkaklardir.

Lekin maktablarda erkak o'qituvchilar soni yanada ko'payishiga ma'naviy ehtiyoj bor. Bugun ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarning ustozini mensimaslik, hurmat qilmaslik yoki mutlaqo bir-birini tushunmaslik kabi holatlarga bot-bot ko'zimiz tushyapti. Jamiyatdagi bu kabi illat ildizi bolalar hech kimdan hayiqmasligi, ma'naviy muhit sayozligiga borib taqaladi. Farzand zarur ta'lim-tarbiyani, avvalo, oilada oladi. Otaning o'rni mustahkam oilada o'g'il-qiz bag'ri butun, tartibli va oriyatli bo'lib voyaga yetishi sir emas. Xuddi shu kabi maktab muhitida ham erkak o'qituvchining ta'siri bolaning g'ururli, mard, jasur bo'lib rivojlanishiga ko'mak beradi. Bu esa ayni o'smirlik davrida ta'lim-tarbiyada erkak o'qituvchining o'rni nechog'liq muhimligiga yaqqol dalildir.

Bugun ta'lim tizimida erkak o'qituvchilar salmog'i ortib borayotgani bolalarda ana shu ijobiy fazilatlarining shakllanishiga ko'mak beryaptimi?

Raqamlar yetarliymi?

Bugun muallimning mavqeyi, o'qituvchilik kasbi nufuzini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda, hurmat-ehitirom ko'rsatilib, mehnati munosib e'tirof etilayotir. Pedagoglar turli yumushlar, ortiqcha qog'ozbozlikdan ozod etilishi, oylik maoshlari oshirilgani, ustoz degan ulug' maqomga munosib ko'rilyotgani samarasini bir mahallar turli sabablarga ko'ra, maktabni tark etgan erkak o'qituvchilarning o'z ishiga qayta boshlagani misolida ham ko'rish mumkin.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bergan ma'lumotga ko'ra, 2019-yilda jami o'qituvchilar soni 481 ming 604, shundan

Bolalar intizomi bilan bog'liq muammolar kamaygan

Mardlik, jasurlik, elu yurt ravnagi yo'lida kamarbastalik azaldan yigitlarga xos fazilat bo'lib kelgan. Oila, vatan atalmish xo'rg'oning himoyasi, osoyishtaligi ham ular bilan. Bugun yoshlarda ana shu fazilatlar yanada bo'y ko'rsatishi uchun ta'lim-tarbiyaga har qachongidan ko'proq ahamiyat qaratilmoqda. Bunda esa erkak o'qituvchilarning o'rni muhim. Ular bor joyda ijobiy muhit, tartib

hukmron. Javobgarlik, intizom va iroda kabi xususiyatlar aynan erkak o'qituvchilar tufayli yana yuzaga chiqayotgani, o'g'il bolalar uchun muhim sanalgan o'z-o'zini boshqarish, mustaqil va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish, murakkab vaziyatlarda sabrli bo'lish qobiliyati farzandlarimizda shakllanib borayotgani quvonarli. Zero, bu fazilatlar ertaga bir oilaning ustuni, jamiyat hayotida yetakchi, tirgak bo'lguvchi yigitlarga hayotning har bir qadamida kerak. Ustozning biror muammoni hal qilish bo'yicha bergan maslahat va yo'l-yo'rig'i qaysidir nuqtalarda o'quvchi hayotini yaxshi o'zanga burib yuborishi mumkin. Shunday bo'lyapti ham. Murakkab hayotiy holatlarga tayyor bo'lish, ulkan maqsadlarga erishishda muhim bo'lgan sabr, kuchli iroda va qat'iyat kabi ko'nikmalar shakllanishida erkak o'qituvchilarning ta'siri beqiyos ekani ko'zga tashlanmoqda.

O'qituvchi uchun oriyat masalasi jo'n emas. O'qituvchilar ustoziga namuna sifatida qaraydi. Muallimning kasbiga, darisiga va fikrlariga nisbatan hurmatsizlik ko'rsatilishi, bilimiga nisbatan shubha bilan qaralishi yaxshi oqibatlar olib kelmaydi. Oriyat mustahkam o'qituvchi bunga nisbatan darhol chora ko'ra oladi. Shu tariqa bolalarda ustozga hurmat, tizginli xatti-harakatlardan chekinish hissi yuzaga keladi.

Maktablardagi holatni kuzatar ekanimiz, pedagogning bilimi va salohiyati bolalarni maqsad sari dalil intilishiga katta turki berishi shubhasiz ekaniga yana bir bor guvoh bo'ldik. — 6 yildan beri o'quvchilarga ona tili va adabiyot fanidan saboq berib kelyapman, — deydi Farg'ona shahridagi 19-maktab o'qituvchisi Bahodirxon Jo'rayev. — Maktabda birinchi marta o'qituvchi bo'lib kelganimda o'quvchilarning ba'zilarini meni qattiqqo'l deb o'ylagan, ayrimlari esa maktabga dars berish uchun kelgan talaba sifatida ko'rgan.

Yuksalish pallasasi

ULARGA EHTIYOJ BOR

MAKTABLARDA ERKAK O'QITUVCHILAR KO'PAYMOQDA

Ammo biz darhol umumiy til topishdik. Bir oz tartibsiz bolalar ham uchradi. Ular bilan qat'iy suhbatlashdim, o'zini tutishi, kelajagiga daxldor holatlar haqida zarur tavsiya va o'g'illar berdim. Orzusi amalga oshirishga ko'makdosh bo'lishimni aytganimda holat o'zgarardi. Ozgina yaxshilik va e'tibor ularning qalbiga nur va cheksiz quvonch olib kirishiga ko'p bor amin bo'ldim.

O'z ustida ishlagan, mehnat va mashaqqatdan qo'rqmagan pedagog shogirdlariga namuna bo'la olyapti. Bahodir yaqinda 2024-yilning "Eng yaxshi o'zbek tili o'qituvchisi", deya e'tirof etilib,

Stereotiplarni sindirib...

— Bugun maktablarda erkak va ayol o'qituvchilar mutanosibligi sezilarli ta'minlanmoqda. Son jihatidan mutanosiblik esa gender tenglikni qo'llab-quvvatlaydi. Bu bolalarga jamiyatda har ikki jinsning tengligini anglashga va kelajakda professional tanlovlarda gender bilan bog'liq stereotiplardan xoli bo'lishga yordam beradi. Chunki o'quvchi ayol ustozidan mehr, g'amxo'rlik olsa, erkak muallimning qo'lida unda o'zgacha mardonavorlik, qat'iyat, iroda shakllanadi,

sport mashqlarini bajarishga undayman va shu orqali ruhiyatini tarbiyalashga harakat qilaman. Maktablardagi inspektor-psixologlar shtati Ichki ishlar vazirligining Milliy gvardiya tizimiga o'tkazildi. Ular bugun bizga yaqin ko'makchi, tartibsizliklarni birgalikda bartaraf etib kelyapmiz. Maktabimizda erkak o'qituvchilar kamroq. Jami o'qituvchilarning 10 foizini erkaklar tashkil qiladi, xolos. Ular shu maktab to'liq bo'lmagan oilaga o'xshaydi. Hamkasblarimiz soni ortsa, maktabda ta'lim sifati ham oshishi, tartib-intizom qat'iyatlashishiga ishonchim komil.

Erkak o'qituvchilarning maktabdagi ishtiroki yosh o'g'il bolalar uchun o'zlikni anglashga qo'llab-quvvatlovchi omil bo'layotgani, bolalar kelajakdagi shaxsiy va ijtimoiy maqsadlarini belgilashda ustozidan ilhom olayotgani rost. Erkak o'qituvchilar ta'sirida bolalarning o'ziga ishonchi ortib borayotganiga muloqotlar paytida ko'p bor guvoh bo'ldik.

Umidlar yo'lida...

Katta yo'l boshida turibmiz. Uchinchi Renessansga po'ndevor qo'yilayotgan shu kunlarda millatimizning tom ma'nodagi "oltin fondi"ga umid bog'lanmoqda. Har jihatdan yetuk, fazilati yoshlarni esa qadr-qimmat bilan ustozlar tarbiyalaydi. Bunda qat'iyat va iroda sohibi, fe'l-i keng, mard va tanti, fidoyi erkak o'qituvchilarning o'rini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bergan ma'lumotga ko'ra, birgina joriy yil boshidan buyon 125 o'quvchi-yosh nufuzli xalqaro olimpiadalarda yuqori natija ko'rsatib, g'olib bo'ldi. Bu dunyo ta'limi sahnasida 125 marta yurtimiz sha'ni ulug'langanidan dalolat beradi.

Olis va chekka hududlarga borib ishlayotgan o'qituvchilarning aksariyatini erkak pedagoglar tashkil etyapti. Ko'pgina maktablarning "qizil" toifadan "yashil"ga o'tishida ham ularning hissasi katta. Ular bor joyda bilim va salohiyat, mas'uliyat, tartib hukmron bo'layotgani kuzatilmoqda.

Kun kelib hozirgi bolalar orasidan yetishib chiqqan olimlar, ziyolilarning qalbidagi ularga ta'lim bergan muallim oldidagi qarzdorlik, chuqur hurmat tuyg'ulari bo'y ko'rsatishi shubhasiz. Dunyoni o'zgartirishga qodir go'zal tuyg'ular, ezgu g'oyalarga turli bergan ustozlar siymosi xotiralarda jonlanarkan, oriyatli, mard, g'amxo'r otalar, akalar yodga tushadi. Bugun kasbining quvonchu zahmatiga esh, fidoyi ustoz — erkak o'qituvchilar salmog'i oshib borayotganini ko'rib, ko'ngilda ko'p yaxshiliklarga umid uyg'onmoqda. Umidlar ro'yobi esa hali oldinda!

Risolat MADIYEVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Nuqtayi nazar

TILNI ASRAMOQ MILLATNING BURCHI

Azizbek HASANOV,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Har bir millatning ma'naviy kamolotini ko'rsatadigan qadriyatlar bo'ladi. Shulardan biri, shubhasiz, til. Bizning ham dunyo tillari bilan bellashishga qodir go'zal va boy tili bor. Ona tili xalqimizning uzoq tarixiy ildizlariga, o'z siyosiy-huquqiy asoslariga ega muqaddas ma'naviy yutug'idir. Bugungi kunga qadar shonli va sharafli yo'larni bosib, keskin va shiddatli to'fonlarni yengib kelayotgan milliy tili davlat maqomida yanada ulug'vor va ustuvorligini namoyon qilib kelmoqda.

Prezidentimizning "Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasini va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni ehsitib, baxshi va hoziflarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin", degan fikridan anglab yetish mumkin, til har bir millat madaniyatining o'zigidir. U xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydigan, birlashtiradigan, urf-odat va an'analarni saqlaydigan asosiy vosita ekanini har birimiz chuqur anglab, ona tilimizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yuksaltirish, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo'shishga hissa qo'shmog'imiz lozim.

Til juda muhim tarbiya vositalaridan biri. Yosh avlod qaysi tilda tarbiya topsa, uning keyingi taqdiri ham bevosita shu til bilan bog'liq bo'ladi. Bola qancha ko'p til o'rganmasin, baribir uning tasavvurida ilk bora hayot ranglarini tanigan ona tili asosiy bo'lib qolaveradi. U ayni tilda fikrlaydi, mulohaza yuritadi. Shu o'rinda o'zimizga savol bersak: biz farzandlarimizni ona tilimizga muhabbat ruhida tarbiyalay olaymizmi? Ular kelgusida tilimizning asosiy targ'ibotchilari sifatida qolishini tushunib yetayapmizmi?

Bugun maktabimizda yoshlarga e'tibor har qachongidan yuqori. Yilimiz ham bejiz "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb nomlanmagan. Ularda o'zini turli sohalarida sinab ko'rish, bu yo'lida davlatimiz g'amxo'rligidan



bahramand bo'lish imkoniyati bor. Kimdir biznesni tanlasa, kimdir o'z kelajagini ilmfanda ko'radi. Bugun o'z brendini yaratish, uni keng tanitish uddalab bo'lmaydigan ish emas. Yoshlar orasida o'z yo'lini topgan, allaqachon muvaffaqiyatli tadbirkorga aylanganlari talay, ularning yutuqlaridan dil quvonadi. Biroq aksariyat yoshlar tomonidan shaxsiy biznesiga tanlanayotgan ajnabiy tillardagi nomlarni o'qib xafa bo'lasan kishi. Buning sababini so'rasangiz, dunyoga tanilish uchun shu yo'lga tutganini

aytadi. Nahotki ona tilimizda dunyoga tanilishga arziydigan so'zlar bo'lmasa?! Shunday yoshlar nom tanlash jarayonida o'zbek tilining izohli lug'atiga bir qur nazar salsalar, qanchadan-qancha go'zal nomlar topgan bo'lardi-ya, deb o'yab qolasan.

Tilga mehri har bir inson uning qo'pol ravishda buzilishiga yo'l qo'ymaydi, hurmat bilan qaraydi. Haydovchi yo'l harakati qoidalariga xilof ish tutsa, belgilangan jarimani to'laydi. Adabiy til me'yorlariga rioya etmasdan teleko'rsatuv va radioeshittirishlar olib boruvchi boshlovchilarning tilimiz qoidalarini buzishiga esa negadir jarima solmaymiz. Aslida, ularning ona tiliga mehru muhabbati boshqalarga o'rnatilgan bo'lishi kerak emasmi? O'zbek tilida tele va radioko'rsatuvlar olib boruvchi boshlovchi va jurnalistlarimizdan bu masalani qayta o'yab ko'rishlarini iltimos qilgan bo'lardik.

O'zbek tili AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya, Xitoy, Hindiston, Turkiya va shu kabi qator davlatlarning 60 ga yaqin oliy ta'lim muassasasi va 100 dan ziyod maktabida o'rganilayotgan bir paytda biz qurilgan binolarimizning nomini xorijiy tillarda nomlab o'tirganimizni, hatto reklama materiallarini ham shundoq latif tilimiz qolib ajnabiy so'zlar bilan to'ldirayotganimizni qanday tushunish mumkin?

Zero, buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek: "Har bir millatning



dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on o'yinai hayoti tili va adabiyotidir. Milliy tili yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur".

Mamlakatimizda davlat tiliga e'tibor har qachongidan-da kuchaydi. Bugun ona tilimizni ulug'lash, uning boy xazinasi, tarovati va nafosatini yosh avlodga yetkazish maqsadida atqoli shoir va adiblarimiz nomlaridagi ijod maktablari tashkil etilgan. Muhammad Rizo Ogahiy, Is'hoqxon Ibrat, Abdulla Qodiriy, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroym Yusupov, Halima Xudoyberdiyeva, Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktablarida saboq olgan yoshlar o'zbek tili va adabiyoti, badiiy ijod sirlarini chuqur o'rganayotir. Albatta, bu yoshlar kelgusida ona tilimiz, millatimizning haqiqiy jonkuyarlari bo'lib voyaga yetadilar.

Taassufki, mustabid tuzum davrida millat ruhi, g'ururi bo'lmish o'zbek tilining mavqeyini pasaytirishga urinishlar ko'p bo'lgan. Millat oydini, ma'rifatparvar adib Abdulla Qodiriy "O'zbek tili kambag'al til emas, balki o'zbek tilini kambag'al deguvchilarning o'zi kambag'al. Ular o'z nodonliklarini o'zbek tiliga to'nkamasinlar", degan xitobi bilan o'timshing achchiq sitamlarini bayon qilgan edi. Bugun esa holat butunlay boshqacha, ona tilimiz qadri yuksaltirish fuqaro sifatida har birimizning o'zimizga bog'liq.

Shunday ekan, barchamizda ona tilimizga bo'lgan g'amxo'rlik va muhabbat kun sayin o'sib boruvchi jarayonga aylansin. Yosh avlodni ham ayni ruhda tarbiyalash mas'uliyatini hammamiz birdek his etaylik. Shundaygina ajdodlarimiz ruhi bizlardan rozi, avlodlar esa minnatdor bo'ladi.

